




O'zbekiston Respublikasi Ta'limni rivojlantirish
respublika ilmiy-metodik markazi

YANGI AVLOD, YANGI YONDASHUV-PIRLS EVOLYUTSIYASI

Sa'dinova G.T-Samarqand viloyati Paxtachi tumani
1-maktabning boshlang'ich ta'lim mentor o'qituvchisi



PIRLS -xalqaro tadqiqotida boshlang'ich sinf o'quvchilarining asosan sinfda o'qish va sinfdan tashqari o'qish darajasi baholanadi. Bu jarayonda badiiy asar va axborotli matnlar mutolaasi orqali "badiiy dunyoqarash elementlarini egallash" hamda "axborot olish va undan foydalanish"ga alohida e'tibor qaratiladi.



O'QISH SAVODXONLIGI


Insonning matn shaklida berilgan ma'lumotlarni tushuna olish va ularga reaksiya bera olish ko'nikmasi, o'qigan ma'lumotlaridan o'z maqsadlari yo'lida foydalana olishi, bilim va imkoniyatlarini oshira olish layoqati.



PIRLS evolyutsiyasi nima?



Zamonaviy ta'lim tizimini yaratish yo'lida ekanmiz, o'qish savodxonligini oshirish va standartlash kelajagimiz davomchilari bo'lmish yoshlarni, ularning bilim va ko'nikmalarini xorijiy ta'lim standartlari asosida shakllantirish, matnni o'qish va tushunish savodxonligini rivojlantirishda zamonaviy aniq mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Bu esa PIRLS xalqaro tadqiqotlarida yuqori natijalarga erishishga dasturul amaldir.





1. Adabiy kitobxonlik
malakasini egallash
maqsadida o'qish



2. Axborotni o'zlashtirish va
foydalanish maqsadida o'qish

PIRLSning boshlanishi (2001)

2001-yil — PIRLSning birinchi sikli o'tkazildi.

Maqsad: 4-sinf o'quvchilarining o'qish ko'nikmalarini **asosiy xalqaro standartga** solishtirish.

Natija: o'quvchilarning o'qish darajasi va ularning milliy o'quv dasturlari bilan bog'liqligi aniqlangan.

Ko'rsatkichlar: o'rta o'quvchi balli 500 deb belgilangan. Shu bilan birga, ayrim ilg'or davlatlar bu ballardan yuqori natijalarni ko'rsatgan.

2006-yil PIRLS

Bu sikl **o'quvchilarning o'qish ko'nikmalaridagi o'zgarishlarni** aniqlashga imkon berdi.

Natijalar shuni ko'rsatdi:

Ba'zi mamlakatlarda ballar **pasaydi**, ba'zilarida **oshdi**.

Masalan, **Singapur va Gongkong** yuqori ballarni saqlab qoldi.

Shu davrda **analitik savollar** ham qo'shildi: o'quvchilarning matnlarni tushunish strategiyalari aniqlandi.

2011-yil PIRLS

2011-yilgi sikl PIRLS tarixida “**o‘qish ko‘nikmalarining rivojlanish tendensiyalarini**” ko‘rsatadigan ikkinchi sikl hisoblanadi.

Yangi jihatlar:

Matnlarni tahlil qilish va muammolarni hal qilish

bo‘yicha testlar qo‘shildi.

Natijalar: o‘qish darajasi **barqaror yoki biroz oshgan** mamlakatlar ko‘p edi.

2016-yil PIRLS

- Ta'limning yangi yondashuvlari va texnologiyalar o'qish ko'nikmalariga qanday ta'sir qilganini ko'rish uchun sinovlar o'tkazildi.
- Ko'rsatkichlar:
- Ba'zi davlatlarda **ballar oshdi**, lekin ba'zilari barqaror qoldi.
- Shu yildan boshlab **elektron testlar (digital PIRLS)** tajribalari ham boshlandi.

2021-yil PIRLS

- **So'nggi sikl** — o'quvchilarning global o'qish
- ko'nikmalarini pandemiyadan keyingi davrda baholash.
- Xususiyatlari:
- O'qish qobiliyatining raqamli va an'anaviy shakllari
- o'rganildi.
- Natijalar shuni ko'rsatdi:
 - Ba'zi davlatlarda o'qish ballari biroz pasaydi, chunki
 - **COVID-19** davrida ta'limga cheklovlar ta'sir ko'rsatgan.
 - Ilg'or davlatlar (Singapur, Gonkong) barqaror
 - yuqori ballarni saqlab qoldi.

PIRLS evolyutsiyasining asosiy tendensiyalari

- **O‘qish savodxonligi global trendini kuzatish:**
 - 2001-yildan beri ko‘pchilik ilg‘or mamlakatlarda barqaror yoki ortib boruvchi ballar.
- **Analitik va tanqidiy o‘qish qobiliyatlari** — keyingi sikllarda yanada muhimroq bo‘ldi.
- **Texnologiya ta’siri** — raqamli matnlar bilan ishlash qobiliyati yangi element sifatida kiritildi.
- **Pandemiya ta’siri** — 2021-yilda ayrim mamlakatlarda ballar biroz tushdi, ammo ilg‘or davlatlar yuqori natijalarni saqlab qoldi.

PIRLS o'rtacha o'qish ballari (2001–2021)

Davlat/Region	2001	2006	2011	2016	2021
Angliya (Buyuk Britaniya)	553	539	552	559	558
Gonkong SAR	528	564	571	569	573
Yangi Zelandiya	529	532	531	523	521
Singapur	528	558	567	576	587
Avstraliya	(ma'lumot yo'q)	(ma'lumot yo'q)	527	544	540



O'zbekiston **PIRLS-2021** baholash tizimida ishtirok etdi. **PIRLS** xalqaro dasturida qatnashish O'zbekistonga boshlang'ich sinf o'quvchilari orasida o'qish qobiliyatlari darajasini mustaqil ravishda obyektiv baholash imkonini beradi.

Bundan tashqari, O'zbekiston ta'limining ochiqligi va integratsiyalashuvi dunyoning yetakchi ta'lim tizimlarining xalqaro hamjamiyatiga integratsiyalashuvini ta'minlaydi.

- **Danak ichidagi daraxt**
- (Aziz Abdurazzoq)
- Bir bor ekan, bir yo‘q ekan,
- Bir yo‘q ekan, bir bor ekan.
- Shahrimizda chaqqon, dono
- Ra'no degan qiz bor ekan.
- U yashagan hovli bog‘day,
- Daraxtlari ko‘p-ko‘p ekan,
- Yoz kelganda ko‘m-ko‘k ekan.
- Hovlidagi bir tup o‘rik
- Sara ekan, zotli ekan,
- Asaldan ham totli ekan.



O‘sha o‘rik pishganida, Ra‘no uni maza qilib yeb, ortiqchasini oftobga yoyib quritar ekan. O‘rik qurib, turshak bo‘lganida, oyisi uni xaltalarga solib, tikib qo‘yar ekan. Bir kuni Ra‘no oyisi bilan birgalashib xaltalarga turshak solayotganida, turshak orasidagi bitta danak yerga tushibdi. Ra‘no uni olib, osmonga otib o‘ynay boshlabdi. U danakni osmonga otar ekan-da, pastga tushayotganida kafti bilan ilib olar ekan. Har safar danak Ra‘noning kaftiga tushganida, "shiq-shiq" degan tovush eshitar ekan. "Iya, bu nima?" deb o‘ylabdi Ra‘no.

- Shunda danakning ichida kimdir ingichka ovoz bilan gapiribdi:
- — Bu men — daraxtman, — debdi haligi ovoz.
- — Iya, daraxt ham danakning ichida bo‘ladimi? — debdi Ra‘no hayron bo‘lib. — Daraxt bo‘lsang, qanaqa qilib danakning ichiga kirib olding?
- Ra‘no danakni chaqib ko‘rmoqchi bo‘libdi.

- — Qani, ko'ray-chi, qanaqa daraxt ekansan? — debdi u.
- U shunday deb, danakni kattakon, sip-silliqliq toshning ustiga qo'yibdi. Keyin uni bolg'a bilan urgan ekan, sirg'alib uchib ketibdi. Ra'no uni qidiribdi-qidiribdi, topolmabdi.
- — Hay, mitti daraxt, qayoqqa qochding? — deb chaqiribdi.
- Danak javob bermabdi.
- Shunday qilib, danak yo'qolibdi. Bora-bora, Ra'no uni esidan chiqarib yuboribdi. Chunki uning ishi ko'payib ketibdi. U har kuni dadasining yonida yurib gullarga suv quyibdi, oyisining aytganini qilib hovli supuribdi, tovuqlariga don beribdi. Xullas, ishdan qo'li bo'shamabdi. Shunday qilib, yoz o'tib, kuz kelibdi, kuz o'tib, qish kelibdi. Bir kuni oyisi xaltalardan bittasini ochib undagi turshakdan kompot pishirayotganida Ra'no o'sha yo'qolgan danakni eslabdi.
- O'sha danak turshak tamom bo'lgunicha Ra'noning esidan chiqmabdi. Turshak tamom bo'lganida qish ketib, bahor kelibdi. Ra'no yana hovlida goh o'ynab, goh dadasiga, oyisiga qarashibdi. Ular gul ekishibdi, daraxtlarni tagini chopib yumshatishibdi, eski xazonlarni tozalashibdi. Shunday kunlardan birida Ra'no ekin ekiladigan joyda o'ynab yursa, yerdan kichkinagii nihol o'sib chiqqanini ko'ribdi. Tepasiga borib, cho'nqayib o'tirib tomosha qilibdi. "Bu nima ekan?" deb o'ziga-o'zi gapirgan ekan, nihol yosh bolaga o'xshab ingichka ovoz bilan:

- — Men — daraxtman, — debdi. Ra'no uni ovozidan tanibdi. U o'sha Ra'noning bolg'asidan qochib qutulgan danak ekan.
- — Men yo'qotgan danak senmisan? — debdi Ra'no.
- — Danak emasman, daraxtman, — debdi nihol. — Ko'rmayapsanmi?
- — Ko'rib turibman, daraxtsan, — debdi Ra'no. — Danakning ichiga qanaqa qilib sig'ding?
- — Danakning ichida mag'iz edim, — debdi nihol. — Yerda, qor tagida uxlab yotib, uyg'ondim, keyin daraxt bo'lib o'sib chiqdim. Agar meni chaqib yeb qo'ysang, hozir bunaqa chiroyli daraxt bo'lib o'sib chiqmagan bo'lardim. Endi meni yulib tashlamasang, o'sib, huv anavi oyimga o'xshagan katta o'rik daraxti bo'laman.
- O'sha kundan boshlab Ra'no niholni qo'riqlaydigan bo'libdi. Hozir ham uni parvarishlab yurganmish. Kimki uni ko'rmoqchi bo'lsa, uch yildan keyin bahorda Ra'nolarnikiga borsin. O'shanda danakdan chiqqan mitti o'rik gullab turgan bo'ladi.



2-topshiriq. Ra'no qanday qilib
turshak tayyorlar edi?

1
0
8
9

3-topshiriq. Quyidagi soʻzlarning maʼnosini izohlang.

- Turshak-
- Kaft-
- “Daraxt danakning ichida”-
- Sip-silliq-
- Kompot-

2

1

0

8

9

4-topshiriq. Bog' va ko'chat ekish haqida maqollar yozing.

3

2

1

0

8

9

5-topshiriq. Ra'no - ushbu ertakdagi muhim shaxs. Sodir bo'lgan hodisalarda nima uchun uning ahamiyati muhimligini tushuntiring.

3

2

1

0

8

9

6-topshiriq. Turshak bo'lgungacha bo'lgan bosqichni to'g'ri joylashtiring. Dovuchcha, gul, o'rik, kurtak, turshak.

2

1

0

8

9

7-topshiriq. Danak tosh orasidan qayerga uchib tushdi

- ☐ Gullar orasiga
- ☐ Ekin ekiladigan maydonga
- ☐ Tandirxona ichiga
- ☐ Qudug ichiga

8-topshiriq. Qanday daraxtlar danakdan o'sib chiqadi?

Olma, uzum, tol

Shaftoli, o'rik, terak

Olma, chinor, yong'oq

O'rik, bodom, gilos

E'tiboringiz uchun
rahmat!

